



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

3. Moslikni topish – shaxsiy xususiyatlar bilan kasb talablarining mos tushishini aniqlash.

2. "Choosing a Vocation" (1909): Parsons vafotidan so‘ng nashr etilgan bu asari kasbiy yo‘naltirish sohasidagi ilk asosli qo‘llanmalardan biridir. Unda yuqoridagi uch bosqichli model tafsilotlari bayon qilingan.

3. Boston Vocation Bureau: 1908 yilda Bostonda birinchi kasbiy yo‘naltirish byurosini tashkil etgan. Bu markaz yoshlar va ish izlovchilarga kasb tanlashda yordam bergan.

Xulosa: Frank Parsons kasbiy yo‘naltirishni faqat "maslahat" emas, balki shaxsiy tahlil va ilmiy metodlar asosidagi tizimli jarayon sifatida ko‘rgan. Uning ishlari hozirgi kunda ham ko‘plab kasbiy testlar va maslahat modellarining asosida yotadi.

O‘spirinlarda kasbiy qiziqishlarni aniqlashga bag‘ishlangan metodikaning bajarilish tartibi shundan iboratki, tajriba materialida berilgan kasbiy faoliyatga oid savollarni o‘z qiziqish darajasidan kelib chiqib baholashadi, buning uchun 4 ball qiziqish darajasi kuchliligiga, 1 ball esa umuman qiziqarli emasligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nishanova Z.T, Kamilova N.G, Abdullayeva D.U, Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent:darslik/ “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. 370-bet.

2. Ne‘matov F.Begmat o‘g‘li “O‘spirinlik davrida kasb tanlash muammolari” (maqola) <https://doi.org/10.5281/zenodo.7940145>

3. Do‘stmuxammadova X. Ilk o‘spirinlik davrida o‘quv kasbiy faoliyatining yekakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi (maqola) [jild: 4nashr: 2(2025)] issn:2992-8915

4. Жумаев У.С. Ўсмирларда касб танлашга муносабат тизими шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: психол. фан. ном. дис. автореферати. – Т., 2004. – 8-бет.

5. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. М., 2004. С. 304.

6. Абдалиева Л.В. Психологические аспекты профессионального самоопределения. Воронеж, 2004. С. 77.

7. Елена Владимировна Груздова Воронежский экономико-правовой институт, г. Воронеж, Россия, аспирант кафедры психологии и естественнонаучных дисциплин; средняя общеобразовательная школа № 34 с углубленным изучением отдельных предметов, педагог-психолог, е-шай: kombinir@mail.ru

OILA TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI HAQIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Ps.f.b.f.d (PhD,)dotsent Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
E-mail - umidaibaydullayeva@gmail.ru

Shokirova Xolida O‘rozboq qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax Filiali

Psixologiya mutaxassisligi M02-25 guruh magistranti

E-mail - xolidashokirova5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila tushunchasining mohiyati va uning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, Sharq mutafakkirlarining qarashlari tahlil qilinadi. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarning oila qurish, farzand tarbiyasi, er va xotinning burch hamda vazifalari haqidagi o'g'itlari haqidagi fikr mulohazalari berilgan. Shuningdek, Sharqona oilaviy qadriyatlarning bugungi kunda yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati berilgan.

Kalit so'zlar: oila, komil inson, farzand, ma'naviy qadriyatlar, yosh oila, burch va majburiyatlar, oila etikasi, yosh avlod, tarbiya, nikoh, sog'lom muhit.

Zamonaviy psixologiyaning muhim sohasi bo'lgan ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyadagi ilmiy izlanishlarda oila-nikoh muammolari, oilaning turmush tarzi, er-xotin munosabatlari mustahkamligini ta'minlovchi muhim omillar, shuningdek, oila a'zolari o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ziddiyatlarning shakllanishi, natijada oila buzilishlarini yuz berishi bilan bog'liq masalalarni aniqlashga yo'naltirilgan bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda so'nggi yillarda oila institutini mustahkamlash orqali oilada sog'lom psixologik muhitni yaratish, oiladagi shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va oila qadriyatini mustahkamlash orqali oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, zarur me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilib kelinmoqda.

Oila bu - o'zaro ijobiy munosabatlar asosida birlashgan ota-ona, bolalar, aka-ukalardan tashkil topgan bir guruh hisoblanadi. Oila - kelajakdagi munosib vorislarni barkamol shaxs qilib tarbiyalaydigan, qadriyat hamda milliy an'analarimizni kelajak avlodga o'tkazadigan maskan sanaladi. Shuning uchun, oila doimo davlatning asosiy e'tibor markazida turadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi" [1] belgilab berilgan bo'lib, oilaning kafolatlanganligini bildiradi.

Yangi O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini yanada kuchaytirish, tarbiya jarayoniga o'zbek xalqining ma'naviy merosi va unga xos bo'lgan gumanistik missiyani singdirish, oilaviy hayotda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash maqsadini amalga oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun oila muhitini sog'lomlashtirish, oilaviy o'zaro munosabatlar barqarorligini ta'minlash..., ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini yuksaltirish...»[2] kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda psixologik asos bo'lib xizmat qiladi va muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu nuqtai-nazardan buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar bobolarimiz Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Kaykovus, Y.Xojib, A.Navoiy, X.Koshifiy, Z.Bobur, A.Donish, Fitrat va boshqalar tomonidan yaratilgan boy ma'naviy merosda O'rta

Osiyoda yashagan xalqlar, xususan, o'zbeklarning oiladagi hayot tarzi, oila-nikoh munosabatlari, ayniqsa, yosh kelin-kuyov munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning oila bilan bog'liq burch va vazifalari, oiladagi sog'lom ma'naviy tarbiyaviy muhit va boshqa zarur jabhalari haqidagi qimmatli fikrlari bilan ahamiyatlidir.

Islom dinining muqaddas kitobi sanalgan Qur'oni Karimning ko'pgina sura va oyatlarida er-xotinning turmushdagi o'rni, vazifalari va majburiyatlari yoritilgan. Shariat qoidalariga ko'ra, "Erkak oilaning barcha moddiy-iqtisodiy (moliyaviy), ijtimoiy ta'minlanganligi va ma'naviy tomonlariga javob beradi, uni tashqaridan keladigan har qanday bosimlardan himoya qiladi. Er kishi uchun muhim xislat hisoblanadigan og'ir-bosqlik, keng mushohadalilik, uzoqni ko'ra bilishlik, dadillik, xalollik va oila-ro'zg'orni boshqarishdagi uddaburonlik kabi zarur sifatleri uchun u oila boshi deb hisoblangan. Yaxshi xotin esa nazokatli, diyonatli, ibo-xayoli, axloq-odobli, erning uyini tartibli, fayz-barakali va obod qiladigan, erga bir umr sadoqat bilan hizmat qiladigan yo'ldoshdir"[3]. Qur'oni Karimda er-xotin va ularning oiladagi munosabatlariga doir ibratli misollarni ko'plab keltirib o'tish mumkin.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy oila hayoti va er-xotin munosabatlariga doir o'zining ba'zi nodir asarlarida qimmatli fikrlarni aytib o'tgan. Olimning qarashlarida oilaviy hayotga yoshlarni tayyorlash, oila va nikoh, yosh oilada kelin va kuyov, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar aks etganligini kuzatamiz. Shuningdek, oila a'zolariga qaratilgan pand-nasihatlari Beruniy tomonidan yaratilgan madaniy merosda ko'plab uchraydi. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir, buzuvchi niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi, tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi"[4]. Ko'rinib turganidek, yosh kelin va kuyov ana shunday hikmatlarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Qomusiy olimlardan yana biri Beruniy ham o'z qarashlarida yosh kelin - kuyovning burch va vazifalari to'g'risida ham zarur misollarni uchratamiz. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishgan"[5].

Shuningdek, Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan "Mahbub ul qulub" (Qalblar sevgilisi) asarida yosh kelin-kuyov o'rtasida sog'lom psixologik munosabatlarni ta'minlovchi oilaviy turmushga taalluqli eng kerakli masalalar: oilaviy munosabatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar, yoshlarning kattalar oldidagi burch va majburiyatlari, oila a'zolarining o'zaro munosabatida ahloqiy madaniyat, yoshlarning er-xotin sifatida bir-biriga mosligi yoki mos kelmasligi, mos kelmaslikning sabablari to'g'risida muhim ma'lumotlarni nasihat tarzida yozib qoldirgan. Asarning 37-fasli "Uylanganlik va xotinlar to'g'risida" qismida kelinning, ya'ni ayolning ijobiy sifatleri va oila hayotidagi ahamiyati to'g'risida quyidagilar keltirib o'tilgan: "Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganning (erning) tinchligi undan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa – g'am kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur,

mahfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamroxing bo'lar. Turmushdan har jafo yetsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi. Nosoz juft (kelin) uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzuqi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi"[6]. Aytish joizki, er va ayol bir-biriga har tomonlama mos tushsa, turmushlari intizomli, bir-biriga ko'makdosh bo'la oladi. Aksincha bo'lsa, bir-birlaridan ko'ngli ozorlanadigan, erkakning yuzi qaro bo'lishi, agar erkak ichkilikka ruju qo'ygan bo'lsa uyning barakasi yo'qolishi hamda erkak va ayol o'rtasida nizolar, tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Sharq mutafakkirlarining oila borasidagi qarashlari shunchaki nazariy ta'limot emas, balki asrlar sinovidan o'tgan hayotiy tajribadir. Ular oilani jamiyatning kichik bir bo'lagi emas, balki butun bir davlatning mustahkamligini va millatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi muqaddas maskan deb bilganlar. Bugungi globallashuv davrida ajdodlarimizning oila masalasidagi ma'naviy merosi biz uchun "ma'naviy himoya qalqoni" bo'lib xizmat qiladi. Ularning o'gitlariga tayanib, oilalarni mustahkamlash — nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki sog'lom va ma'rifatli jamiyat barpo etishga xizmat qiladigan eng to'g'ri yo'ldir. Zero, mutafakkirlarimiz ta'kidlaganidek, oila farovon bo'lsa — yurt obod, jamiyat esa qudratli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. – B. 43.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-maydagi«O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» PQ-4312-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4327235>.
- 3.Куръони Карим / Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. - Тошкент: "Чулпон" 1922-54 бет.
- 4.Абу Райхон Беруний. Хикматлар -Т.:, 1973. -174 б.
- 5.Alisher Navoiy. Maxbub-ul qulub Tanl.as.to'p.13t. - T., 1966 -244 b
6. Ibaydullayeva U.R, Tirkasheva M.A. Oilada ajrimlar yuzaga kelishi va unga olib keluvchi sabablar. Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an'analar va istiqbollar mavzusidagi I-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023.19-20 may.

YOSH OILALARDAGI OILAVIY NIZOLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ergasheva Moxina Narzulla qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali 2-bosqich magistranti

E-mail: moxinaergasheva6506@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh oilada yuzaga keluvchi nizolar, nizolarning ma'lum sabablari, signallari yoki belgilari, ajralish va uning sabablari yoritib berilgan.